


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi

BD-5110900 -4.04

2016-yil "25" 08



Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi

2016-yil "25" 08

**PSIXOLOGIK TRENING ASOSLARI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lif sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lif yo'nalishi: 5110900 – Pedagogika va psixologiya

**Toshkent – 2016**

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2016-yil "25" 08 dagi  
356-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha  
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqiqlashtiruvchi kengashning 2016-  
yil "8" 08 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lif  
muassasalari bilan kelishildi

#### **Tuzuvchilar:**

N.G.Kamilova - Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasi mudiri,  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent  
N.Z.Ismoilova - "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi.

#### **Taqrizchilar:**

R.Abdurasulov- JDPI Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, psixologiya  
fanlari nomzodi, dotsent  
D.M.Rahimova -O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli  
akademik litsey o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
o'quv -uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsija qilingan (2016- yil «14»  
04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

## Kirish

Psixologik treninglar hozirgi zamon psixologiyasining eng ko'zga ko'ringan va muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borish barobarida ijobjiy jihatlari bilan birqalikda kishilar turmush tarzining shiddat bilan o'zgarishi kechayotgan zamonda odamlarda yangi sharoitga moslashish jarayonida vujudga kelayotgan psixologik zo'riqishlarga dosh berish va ularni bartaraf eta olish, bundan tashqari shaxslararo muloqot jarayonida kishilar bilan muloqot o'rnatish jarayonida o'ziga xos psixologik kompitentlikning talab etilishi kabi psixologik muammolar hozirgi zamon kishisidan katta psixologik tayyorgarlikni talab etidi. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishda mutaxassislar asosan psixologik treninglarga tayanishni maslahat beradilar. Shuning uchun, bugungi kunda kishilarni yangi ijtimoiy munosabatlarga o'rgatuvchi fan sifatida psixologik treninglar ko'pchilikning diqqat markazida turibdi.

### Fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lg'usi psixologlar va pedagog-psixologlarga amiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriiga qay arzda ta'sir ko'rsatishini, shuningdek ularning muammolarini hal etish borasida co'nikma va malakalar hosil qilishda psixologik treninglarning ahamiyatini hamda reninglarni o'tkazishning texnologiyasi borasida bilim berishdan iboratdir. Bunda psixologik trening asoslari fanining asosiy muammolari bo'lgan, trening turlari, rening guruhini yig'ishda o'ziga xos jihatlar, trening o'tkazishning psixologik Jonuniyatlar va mexanizmlari kabi muhim jihatlar bayon etilgan.

Psixologik trening asoslari fanining rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar iamda psixologik treninglarni o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan usullar ham lasturda o'z aksini topgan. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan usullar – "Aqliy iujum", "Bahs-munozara", "Guruhlarda ishslash", Psixogimnastik mashqlar, Rolli yinlar, "Psixodramma" kabi asosiy usullar yuzasidan nazariy va amaliy ilimlarni berishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga psixologik treninglarni o'tkazishda zarur o'lgan nazariy-metodologik va uslubiy bazaga ega bo'lish, zamonaviy psixologik reninglarda qo'llaniladigan usullarni o'z ish faoliyatida qo'llay bilish, psixologik rening asoslari fanining asosiy muammolari – muloqotchanlik, stressga urqarorlik, aggressivlikni bartaraf etish, treningda ertak terapeya, musiqiy erapeyaning roli, trenerdan talab etiladigan sifatlar bo'yicha ilmiy asolangan ilimlarga ega bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash borasidagi bilimlar majmui ilan tanishtirish orqali amaliy bilim va ko'nikmalarni hosil qilishdir.

### Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

"Psixologik trening asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish natijasida bakalavr:

- psixologik t reningni maqsad va vazifalari;
- trening guruhlarining rivojlanish tarixi;
- zamonaviy trening turlari;

- treningni birinchi kuni *haqida bilimga ega bo'lishi*;
- trening o'tkazish bosqichlarini;
- trening o'tkazishning muhim jihatlarini;
- treninglarning klassifikatsiyasini;
- trening o'tkazishda dastur va rejaning ahamiyatini;
- guruhlarda ishslashning o'ziga xosligini;
- mashg'ulot jarayonidagi muhitni;
- trenerga tavsiyalar berishni;
- kichik guruhlар bilan ishslash qoidalarini *ko'nikmaga ega bo'lishi*;
- treningda bahs-munozarani tashkil etish;
- trening jarayonida psixogimnastik mashq usulini qo'llash;
- trening jarayonida guruhlар bilan ishslash;
- ish jarayonida guruhda vujudga keluvchi muammolari vaziyatlar va ularni bartaraf etish;
- guruhiy dinamikaning bosqichlari va uni hisobga olish;
- muloqotchanlikni oshirishga mo'ljallangan treninglar o'tkazish;
- shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar o'tkazish;
- ruhiyatni sog'lomlashtiruvchi treninglarni o'tkazish *malakaga ega bo'lishi kerak*.

**Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zarbo'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

"Psixologik trening asoslari" fani psixologiya yo'naliishiga kiradigan ixtisoslik fanlaridan biri bo'lib, 8-semestrda o'tiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy (falsafa, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, sotsiologiya va h.k), matematika va tabiiy-ilmiy (informatika va axborot texnologiyalari, yosh fiziologiyasi va gigienasi va h.k), umumkasbiy (umumiy psixologiya, oila psixologiyasi, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya, xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi, psixologik xizmat, ijtimoiy psixologiya, pedagogika nazariyasi va tarixi, ijtimoiy pedagogika va h.k), ixtisoslik (pedagogik texnologiya, pedagogik konfliktlogiya, kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslari va h.k) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

**Fanning ta'limdagi o'rni**

Jamiyat uchun zarur bo'lgan malakali mutaxasislarni etishtirishda ularning psixologik jihatdan sog'lomligi muhim omil sifatida asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada shaxsdagи mavjud muammolarni bartaraf etishda psixologik treninglar muhim rol o'ynaydi. Aynan mazkur jarayon shaxsni aqliy, ahloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga – uning ruhiy jihatdan salomatligiga turtki bo'ladi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalari "Psixologik trening asoslari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda o'quv uslubiy majmua, uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari,

tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda virtual slaydlardan foydalaniladi. Ma'ruza, seminar va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

**ASOSIY QISM**  
**FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI**  
**Psixologik trening haqida tushuncha. Psixologik treningni maqsad va vazifalari**

Psixologik trening haqida tushuncha. Trening – shaxsda mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'yin va mashqlar asosida bartaraf etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qiluvchi mashg'ulot ekanligi. Treningga berilgan ta'riflarning mazmuni. Trening mashg'ulotining maqsad va vazifalari. Psixologik treningga murojaat etuvchilar guruhi: bolalar, kattalar guruhlari.

**Trening guruhlarining rivojlanish tarixi.**

Qadimgi manbalarda trening elementlariga oid fikrlar. Sharq mutafakkirlarining trening guruhlari bilan bog'liq fikrlari. Guruhiy terapeya elementlarining vujudga kelishi. M.Mesmer va Dj.Prattning guruhiy terapeyaga asos solishi bilan bog'liq tadqiqotlarining mohiyati. Guruhiy terapeyadan foydalanishning boshlanishi. Amerikada guruhiy terapeyaning rivojlanishi. A.Everettning aql dinamikasi treninglarining mohiyati. Psixokorrektcion guruhlarning rivojlanishi. Rossiyada trening guruhlarining rivojlanishi. Rossiyada yuzaga kelgan treninglar va ularning yutuq va kamchiliklari.

**Treningni tashkiliy bosqichi**

Treninglarni tashkiliy bosqichi – treningda ishtirok etuvchilarni yig'ishga qaratilgan bosqich ekanligi. Trening guruhini yig'ish. Bu bosqichda hisobga olinishi kerak bo'lgan guruhning muammosi bir xil bo'lishi lozimligi. Individual suhabatning ahamiyati. Treningni tashkil etishda muhim jihatlar: trening o'tiladigan xonaning holati, guruh ishtirokchilarining yoshi, jinsi, sonining ahamiyati. Trening uchun dastur va rejaning ahamiyati. Trening rejasi va dasturi – mashg'ulotning asosiy ahamiyatli quroli ekanligi.

**Treningni boshlang'ich bosqichi**

Treningni boshlang'ich bosqichi - treningni birinchi kunidan boshlanishi. Kun boshida guruhiy normalarni qabul qilish. Guruhiy normalarni qabul qilishda trener va ishtirokchilarning o'rni. Treningda tanishuvni tashkil qilish. Trener va ishtirokchilarning tanishishida uch xil holatning mavjudligi. Treningda tanishuvni tashkil qilishning uch xil usuli. Intervyu usuli tanishuvda keng qo'llanilishi. Kartochkalar usuli orqali tanishuvning mentalitet xususiyatlari. Videotasma usulining o'ziga xosligi. Ishtirokchilarning kutishlarni aniqlash. Kutishlarni aniqlashda turli shakllardan foydalanish. "Kutuvlar daraxti" mashqi.

### **Teningni asosiy bosqichi**

Treningni asosiy bosqichi – ishni tashkil etish bosqichining asosi ekanligi. Asosiy bosqichda turli xil interfaol usullarni qo'llashning zarurligi. Trening nashg'ulotlarini olib borishning asosiy usullari. Treningda "Ma'ruza" usuli va uni ashkil etishning mohiyati. Ma'ruzani tashkil etishda psixologik bilimlarga ega o'lishning muhimligi. Ishtirokchilarning bilimlari va muammolarini aniqlashda Aqliy hujum" (breystorming) usulining ahamiyati. Aqliy hujumning foydali ihatlari. Treningda bahs-munozara usulining qo'llanilishi. Bahs-munozarani ashkil etishda 4 bosqichning va o'ziga xos qoidalarning mayjudligi.

### **Treningda psixogimnastik mashqlardan foydalanish**

Trening jarayonida psixogimnastik mashqlarni qo'llash orqali shtiroykchilarning faolligini oshirish va ular orasida samimiylit muhitini yaratish umkinligi. Psixogimnastik mashqlarni o'tkazishning o'ziga xos jihatlari. Mashqlarni o'tkazishda trenerga tavsiyalar – maqlarni o'tkazish jarayonida enerning ishtiroki. Trenerning emotsiyal ta'sirchanlik qobiliyati – mashqlarning amarasini ta'sinlovchi asosiy omillardan biri ekanligi. Psixogimnastik mashqlarni o'xtatish va muhokama qilishning mohiyati. Psixogimnastik mashqlarning iaqsadga ko'ra turlari.

### **Trening jarayonida o'yin usuli.**

Trening jarayonida o'yin – guruh bilan ishslash vositasi ekanligi. O'yin haqidagi azariyalar. O'yinning belgilari. Trening jarayonida o'yin usulining ahamiyati. Trening jarayonida o'yinning ikki hil mazmunga ega bo'lishi: birinchisi faqat shtiroykchilar uchun ma'lum bo'lib, o'yin kulgu ma'nolariga egaligi, ikkinchisi esa ener uchun ma'lum bo'lgan o'ziga xos holatlarni o'rganish. O'yinlarni o'tkazishda trener bilishi lozim bo'lgan jihatlar. Treningda o'yin orqali rishiladigan natijalar. O'yinlarni o'tkazishda trenerga tavsiyalar.

### **Rolli o'yinlar**

Trening ishtirokchilarining hayotiy munosabatlarini o'zgartirishda rolli o'yinlarning ahamiyati. Rolli o'yinlar va ularning o'ziga xosligi. Rolli o'yinlarni o'tkazish bosqichlari va qoidalari. Treningda "Psixodramma" usulidan syodalananish. Psixodrammani o'tkazishda o'ziga xosliklarni hisobga olish.

### **Trener va unga qo'yiladigan talablar**

Trener haqida tushuncha. Trener – trening mashg'ulotlarini olib boruvchi sosiy shaxs ekanligi. Trener shaxsiga qo'yiladigan umumiyl talablar. Trener uchun os bo'lgan asosiy kasbiy talablar. Mutaxassislar tomonidan trenerga qo'yilgan lablarning tahlili. Trenerning imidji – ishtirokchilar uchun muhim ihatlardan biri kanligi. Trenerning o'zini tutishi (xulq-atvori) – ishtirokchilarning diqqat iarkazida turishi. Trenerning kompetentligi uning asosiy kasbiy sifatlaridan biri kanligi.

## **Trening jarayonida guruuhlar bilan ishlash**

Trening jarayonida trener guruuhlar bilan ishlashni biliishi. Guruh bilan ishslash borasida tavsiyalar. Trening guruuhida kichik guruuhlarning yuzaga kelishi trening samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi. Guruh bilan ishslashda yuzaga keladigan umumiy muammolar va ularni hal etish. Guruh bilan ishslash jarayonida eng ko'p kuzatiladigan muammoli vaziyatlar va ularning echimi.

## **Guruhiy dinamika va uning bosqichlari**

Guruhiy dinamika haqida tushuncha. Trenerning trening jarayonida guruhiy dinamikani biliishi – trening samaradorligini ta'minlovchi asosiy jihatlardan biri ekanligi. Trening mashg'ulotlari jarayonida trener va ishtirokchilarining pozitsiyasi. Treningni samarasiga guruhiy iqlimning ta'siri.

## **Treningni yakuniy bosqichi**

Yakuniy bosqich – trening mashg'ulotlari davomida olib borilgan ishlarning yakuniy qismi sifatida uni emotsiyal tarzda tashkil etishning muhimligi. Trening tugashida yakuniy bosqichni o'tkazishning muhimligi. Yakuniy bosqichning maqsad va vazifalari – ishtirokchilarining kutuvlari qay darajada amalga oshganligini aniqlash, ularning o'z hissiyorlari bilan o'rtoqlashilari uchun sharoit yaratilishi lozimligi. Yakuniy bosqichni tashkil etishda qayta aloqa"ning roli. "Qayta aloqa" qismini tashkil etish.

## **Trening turlari va klassifikatsiyasi**

Bugungi kunda treninglarning zamon talabiga mos holda talab etilayotganligi va bu borada turli yo'naliishlarning mavjudligi. Trening turlariga oid nazariy yondoshuvlar. Zamonaliv psixologiyada treninglarning klassifikatsiyasi. Bugungi kunda treninglarning 2 ta asosiy turlari ajratilganligi: korporatsion treninglar va psixologik treninglar. Psixologik trening turlari – shaxslardagi aynan psixologik sohadagi muammolarni hal etish yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilishga qaratilganligi.

## **Muloqot treninglari**

Muloqot – shaxsnинг asosiy ehtiyoji ekanligi va bu boradagi muammolar uning uchun katta zo'riqishlarga olib kelishi mumkinligi. Shaxslalaro muloqot jarayonida muloqot ko'nikmalarining muhimligi. Muloqot va muloqotchanlik tushunchalari. Muloqotchanlik treninglarining maqsadi. Muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish bosqichlari. Muloqotda o'zaro munosabatlarning 5 xil pozitsiyasi: raqobat, yon berish, passivlik, kelishuv, hamkorlik. Muloqot jarayonida muloqotga kirishayotgan kishilarining fazoviy joylashuvi o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi. Muloqot jarayonida o'zaro psixologik ta'sirning amalga oshirilishi, bu jarayonda psixologik obro'ning ahamiyati.

## **Shaxsnı rivojlantiruvchi treninglar**

Shaxs – jamiyatda ma'lum bir mavqega ega bo'lgan, jamiyat uchun foyda keltiradigan va kishilar bilan normal muloqotga kirisha oladigan individ ekanligi.

Shaxs, uning rivojlanishi va shaxs barkamolligi tushunchalari. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarning tarixida A.Everettning hissa qo'shganligi. Shaxsga yo'naltirilgan treninglarning turlari. Shaxsni barkamollashiruvchi treninglarning mijozlari: o'zida mavjud imkoniyatlarni rivojlantirishni istaydiganlar, hayotini yangidan boshlashni istaydiganlar, o'ziga bo'lgan bahoni oshirishga harakat qiluvchilarning treningga murojaat qilishi. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarning maqsadi. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglar doirasiga kiruvchi trening yo'nalihsular. O'smirni shaxs sifatida rivojlantiruvchi treninglar haqida tushuncha. O'smirni shaxs sifatida rivojlantiruvchi trening tarixi. Metodika tamoyillari. O'smirlar bilan trening o'tkazishning muhim tomonlari.

### Ruhiyatni sog'lomlashtiruvchi treninglar

Shaxs ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi muammolar – trening jarayonining asosida yotishi. Emotsional sohadagi muammolarga oid treninglar Tanadagi zo'riqishlarni bartaraf etuvchi treninglar. Ruhiyatdagি muammolarga doir treninglar. Nizoni bartaraf etish treninglari. Asosiy tushunchalar (nizo, uning yuzaga kelishi va dinamikasi). Hissiyotlarni boshqarish. Nizoni echishga tayyorlik – ko'nikma va malakalarini hosil qilish yo'llari.

### Stressni bartaraf etish borasidagi treninglar

Stress haqida tushuncha. Stress – shaxsnинг favqulodda vaziyatlarga nisbatan bildiradigan javob reaksiyasi ekanligi. Trener uchun stress haqida umumiy ma'lumotlarni bilish lozimligi. Stress turlari – fiziologik va psixologik stress (informatsion va emotsional stress)ga bo'linishi. Stressni bartarf etuvchi treninglar haqida ma'lumotlar. Stressni bartaraf etishga oid treninglarda qo'llaniladigan o'yin va mashqlar.

Treninglarda ertakterapeyadan foydalanish. Ertak terapeyaning mohiyati. Treningni tashkil etish algoritmi. Bolalar uchun emotsional irodaviy rivojlanish dasturi haqida tushuncha

### Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlar talabalarda ma'lum bir mavzu yuzasidan o'tkaziladigan trening dasturi va rejasini tuzishga o'rgatadi, tuzilgan dastur va reja asosida o'z guruhida treninglar o'tkazishib keyingi faoliyatida treninglarni o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi.

#### Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Treningni birinchi kuni
2. Treningda aqliy hujum va babs-munozara
3. Treningda psixogimnastik mashq usuli
4. Treningda o'yin usuli
5. Guruhda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar
6. Trenerga qo'yiladigan talablar
7. Trening uchun dastur va reja
8. Muloqot treninglari

9. Shaxsn rivojlantiruvchi treninglar
- 10.O'smirni shaxs sifatida rivojlantiruvchi treninglar
- 11.Ruhiyatni sog'lomlashтирувчи treninglar
- 12.Stressni bartaraf etish borasidagi treninglar
- 13.Nizoni bartaraf etish treninglari
- 14.Treningda ertakterapeyadan foydalanish

**Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish  
bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida egallagan iy bilimlarini amaliy bilim va kundalik tajribalari bilan bog'lashni nadilar.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Psixologik trening haqida tushuncha. Psixologik treningni maqsad va vazifalari. Trening guruhlarining rivojlanish tarixi
2. Treningni tashkiliy bosqichi. Treningni boshlang'ich bosqichi
3. Teningni asosiy bosqichi
4. Treningda psixogimnastik mashq va o'yinlardan foydalanish
5. Trenerlik kasbi va unga qo'yiladigan talablar. Trening jarayonida guruhlar bilan ishslash. Guruhiy dinakmika va uning bosqichlari Treningni yakuniy bosqichi
6. Trening turlari va klassifikatsiyasi. Muloqot treninglari
7. Shaxsn rivojlantiruvchi treninglar. Ruhiyatni sog'lomlashтирувчи treninglar. Stressni bartaraf etish borasidagi treninglar

**Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini ga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- Talabaning o'quv ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqr o'rganish;
- O'z ustida mustaqil ishslash malakalariga ega bo'lishini ta'minlash;
- Nazariy bilimlarni amaliy hayot bilan bog'lash malakalariga ega bo'lishiga erishish;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Trening haqida tushuncha (ilmiy ta'riflar asosida).
2. Trening guruhining yuzaga kelish tarixi.
3. Zamonaviy trening turlari.
4. Shaxs kamolotini ta'minlovchi treninglar.
5. Trening guruheni yig'ish.
6. Treningda guruh bilan ishslash.
7. Trening jarayonida shaxsn mulokotchanligini oshirish muammosi.

8. Trening o'tkazish texnologiyasini rivojlantirish yuzasidan xorijda olib rilgan ishlar.
9. Muloqotni samarasini ta'minlashda ijtimoiy-psixologik treninglarning urligi.
- 10.Psixologik treninglarning hozirgi zamon uchun axamiyati va zarurligi.
- 11.Trening o'tkazishdan oldin ishtirokchilarning muammo va motivatsiyalarni qlash.
- 12.Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq treninglar.
- 13.Xulqi og'ishgan o'smirlar bilan ishslashda treninglarning ahamiyati.
- 14.Maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan ishslashda treninglarni qo'llash.
- 15.Trening jarayonida xavotirlilik darajasi kuchli ishtirokchilar bilan ishslash.
- 16.Trening jarayonida yuzaga keladigan muammolar.
- 17.Trening guruhida liderlarni aniqlash borasida ish olib borish.
- 18.Tanani yangi xatti-xarakatlarga o'rgatuvchi treninglar.
- 19.Agressiyani bartaraf etuvchi treninglar.
- 20.Hissiy zo'riqishlarni bartaraf etuvchi treninglar.
- 21.O'zini baholash borasidagi treninglar.
- 22.Treningda korrektsiyaning ahamiyati.
- 23.Geshtalt guruh psixotreninglari.
- 24.Trenerlik mahorati.
- 25.Treningni psixodramma shaklida o'tkazish.
- 26.Trenerga tavsiyalar.
- 27.Trening bosqichlari.
- 28.Trening o'tkazish texnologiyasini rivojlantirish yuzasidan Rossiyada tazilayotgan tajribalar.
- 29.Trenerga qo'yiladigan talablar.
- 30.Psixoanaliz sohasida tashkil etiladigan treninglar.
- 31.Autotreninglar haqida tushuncha.
- 32.Talabalarda stressni bartaraf etish yuzasidan treninglar.
- 33.Yolg'izlik hissini bartaraf etuvchi treninglar.
- 34.Treningda ertakterapiyaning mohiyati.
- 35.Treningda musiqiy terapiyaning mohiyati
- 36.Treningda raqs terapiyaning mohiyati

**Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti  
Didaktik vositalar**

1. **jihozlar va asbob uskunalar, moslamalar:** electron doska – Hitachi, LCD – monitor, electron ko'rsatkich (ukazka);
2. **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar;
3. **kompyuter va multimediyali vositalar;** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar:

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. T. "Yangi asr avlodi" -2008
2. Гиннус С.В. Тренинг развития креативности Спб Питер 2001
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent "Universitet", 2009
4. Лидерс А.Г. Психологический тренинг с подростками М. "Академия" 2003
5. Самоухина Н.В. Первые шаги школьного психолога: психологический тренинг М. Финикс. 2007
6. Хряшева Н.Ю Психогимнастика в тренинге М. Речь 2001
7. Шевцова И.В, Тренинг развития жизненных целей Программа., Речь., 2006
8. Трошихина Е.Г. Тренинг развития жизненных целей М. Речь., 2003

### Qo'shimcha adabiyotlar

- Adizova G.M. Treningning metodik asoslari Toshkent -TDPU. 2002  
Бороздина Г. Психология делового общения М., Инфра., 2001  
Элконин Д.В., Психологический тренинг с подростками М., Академия.,  
3 smoilova N., Abdullayeva D. Trening o'tish metodikasi TDPU 2009  
Чемов Р.С, Практическая психология., М., Пресс., 2001  
Самоухина Н.В Психогимнастика в тренинге М.,Финикс., 2002

### Elektron ta'lim resurslari

1. www. tgpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. uz

